

Xalq qalbiga yo'l



Termiz shahrining "Manguzar" mahallasida yashovchi Nigina opa Rustamova xonadonidagi "aqlli" hisoblagich qarzdorligi sabab o'chib qolgan. Uni qayta yoqish Nigina opaga qiyinchilik tug'dirgan. 1104 va shahar gaz ta'minoti bo'limi xodimlarining ko'magi bilan hisoblagich qayta yoqib berildi. Nigina opaning murojaati o'z vaqtida hal etildi. Shuningdek, sovuq havo haroratida yuzaga kelayotgan avariya holatlari ham xodimlar tomonidan joyida bartaraf etilmoqda. Avariya holati zudlik bilan bartaraf etildi. Gaz quvuridagi gaz sizib chiqish holatining oldi olindi.